



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING ELEMENTAR MATEMATIK MASHG'ULOTLARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Xoldarova F.M.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19218332>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 23-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 25-mart 2026 yil

KEYWORDS

maktabgacha ta'lim, og'zaki nutq, elementar matematika, tafakkur, didaktik o'yinlar, nutq faolligi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada, matematik mashg'ulotlarning nutq rivojiga ta'siri, samarali pedagogik usullar va metodlar keng yoritilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ayniqsa, ularning nutqiy va intellektual salohiyatini oshirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda elementar matematik tushunchalarni shakllantirish nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki og'zaki nutqni rivojlantirish uchun ham muhim jarayondir.

Matematik mashg'ulotlar davomida bolalar son, shakl, miqdor, vaqt va fazoga oid tushunchalarni o'zlashtirar ekan, ular bu tushunchalarni ifodalash uchun faol nutqiy vositalardan foydalanishga majbur bo'ladilar. Shu jihatdan, matematik ta'lim nutq rivoji bilan uzviy bog'liqdir.

Matematik mashg'ulotlarda nutq rivoji imkoniyatlari

Elementar matematik mashg'ulotlar quyidagi jihatlar orqali og'zaki nutqni rivojlantiradi:

Atamalarni o'zlashtirish: "ko'p", "kam", "teng", "katta", "kichik" kabi tushunchalar bolalar nutqida faol qo'llanila boshlaydi.

Izohlash va tushuntirish: bola o'z fikrini asoslashga harakat qiladi.

Savol-javob jarayoni: pedagog tomonidan berilgan savollar bolani mustaqil fikrlash va gapirishga undaydi.

Tasniflash va taqqoslash: predmetlarni solishtirish orqali nutqiy ifodalar boyiydi.

Samarali pedagogik usullar

Elementar matematik mashg'ulotlarda og'zaki nutqni rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Didaktik o'yinlar

O'yin jarayonida bola erkin nutqni rivojlantiradi. Masalan, "Nima ortiqcha?", "Top va ayt" kabi o'yinlar nutq faolligini oshiradi.

Muammoli vaziyatlar yaratish

Bolalarga muammoli savollar berish orqali ularning mustaqil fikrlashi va fikrini og'zaki ifodalashi rag'batlantiriladi.

Dialogik nutqni rivojlantirish

Tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi muloqot muhim ahamiyatga ega. Savol-javob, bahs-munozara elementlari nutqni rivojlantiradi.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish

Rasmlar, geometrik shakllar, predmetlar orqali tushuntirish nutqni aniq va ravon qilishga yordam beradi.

Hikoya tuzish

Matematik mazmundagi kichik hikoyalar tuzish bolalarning nutqini boyitadi va izchilligini oshiradi.

Maktabgacha ta'limda tarbiyachilar bolalarning nutqiy rivojlanishida yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi rolni bajaradilar. Ular bolalarning fikrlarini to'g'ri shakllantiradilar, xatolarni muloyimlik bilan tuzatadilar va har bir bolaning nutqiy faolligini qo'llab-quvvatlaydilar.

Elementar matematik tushunchalarni shakllantirishda bolalarning ong faoliyatining xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Katta yoshdagi bolalar diqqatini bir narsaga uzoq vaqt jamlash qiynaladi, shuning uchun matematik mashg'ulotlar qisqa (20-25 daqiqa) va dinamik bo'lishi zarur. Xotira jarayonlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega - bolalar yaxshi eslab qolish uchun ma'lumotlarni takrorlash va amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Shu sababli matematik tushunchalar sistematik takrorlash va turli kontekstlarda qo'llash orqali mustahkamlanadi.

Pedagogik jihatdan matematik tushunchalarni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda bolalar miqdor, o'lcham, shakl kabi asosiy matematik xususiyatlarni sensorli idrok qilish orqali taniydilar. Keyingi bosqichda bu xususiyatlar verbal tilda ifodalanadi va nihoyat, matematik belgilar tizimi bilan tanishish amalga oshiriladi. Har bir bosqichda bolalarning individual xususiyatlari hisobga olinishi va differensial yondashuv qo'llanishi muhim ahamiyatga ega.

Matematik nutqni rivojlantirish ham muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bolalar matematik atamalarini o'rganish, o'z fikrlarini aniq ifodalash, matematik jarayonlarni og'zaki tushuntirish ko'nikmalarini egallashlari zarur. Bu jarayon bolalarning matematik fikrlashini rivojlantiradi va keyinchalik maktabda matematik fanlarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Matematik nutqni rivojlantirishda og'zaki va yozma ish shakllari bir-birini to'ldiradi.

Matematik tushunchalarni shakllantirishda muhim omillar

Omil	Mazmuni	Pedagogik ahamiyati
Individual farqlar	Har bir bolaning qiziqishi, rivojlanish sur'ati turlicha	Mashg'ulotlarni shaxsiy xususiyatlarga moslashtirish
Motivatsiya	Yutuqni his qilish, quvonch olish	Rag'batlantirish, qiziqarli topshiriqlar berish
Oila bilan hamkorlik	Ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi	Uyda matematik o'yinlar, topshiriqlar bajarish
Baholash	Jarayon va natijani kuzatish	Stresssiz, rag'batlantiruvchi

		diagnostika
Tizimlilik	Bilimlarni mantiqiy ketma-ketlikda berish	Avvalgi bilim asosida yangi tushunchani kiritish

Individual farqlarni hisobga olish matematik ta'limni tashkil etishning muhim prinsipi hisoblanadi. Har bir bolaning rivojlanish sur'ati, qiziqishlari, qobiliyatlari turlicha bo'lganligi sababli, pedagogik jarayonni individual xususiyatlarga moslashtirish zarur. Ba'zi bolalar vizual usullar orqali yaxshi o'rganishsa, boshqalari kinestik faoliyat orqali samaraliroq o'zlashtirishadi. Shuning uchun matematik mashg'ulotlarda turli usul va vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bolalar bilan matematik ishlashda motivatsiya yaratish alohida ahamiyatga ega. Muvaffaqiyat his-tuyg'usini boshdan kechirish, matematik topshiriqlarni bajarish jarayonida quvonch olish bolalarning matematik faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Pedagoglar bolalarning har bir yutuqini e'tirof etishi, qiyinchiliklarni yengishda yordam berishi, matematik mashg'ulotlarni qiziqarli va jonli o'tkazishi muhim.

Oila bilan hamkorlik matematik tushunchalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ota-onalar bolaning matematik rivojlanishiga qo'llab-quvvatlashsa, uy sharoitida matematik o'yinlarni tashkil etishsa, bu jarayon yanada samarali bo'ladi. Oila a'zolari bolaning matematik yutuqlarini rag'batlantirishi, qiyinchiliklarini tushunishi va yordamchi bo'lishi zarur.

Zamonaviy texnologiyalar ham matematik ta'limga kirib kelmoqda. Interaktiv o'yinlar, elektron dasturlar, multimedia vositalari bolalarning matematik tushunchalarni o'zlashtirishiga hamda elementar matematika mashg'ulotlarida og'zaki nutqni yanada rivojlanishiga yordam beradi. Biroq, texnologiyalardan foydalanish bolalarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos kelishi kerak. Texnik vositalar an'anaviy pedagogik usullarni to'ldiruvchi bo'lib xizmat qilishi, asosiy vosita emas, balki yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning elementar matematik mashg'ulotlarida og'zaki nutqni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Elementar matematik mashg'ulotlari tarbiyalanuvchilarni nafaqat hisoblash ko'nikmalarini, balki nutqiy va mantiqiy tafakkurni ham shakllantiradi. Shu sababli, tarbiyachilar matematik mashg'ulotlarni tashkil etishda nutq rivojiga ham alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adams D. S. & Bell A. (2011). Soashing to surrort rresshool teasher rrofessional develorment. Unrublished manussrirt, Derartment of Edusational Leadershir, Universitu of Sonnestisut, Storrs
2. Darling-Hammond L. & MsLaughlin M.W. (1995). Rolisies that surrort rrofessional Develorment in an era of reform. Rhi Beta Karra, (8), 597-604.
3. Darling-Hammond L. (1996). The quiet revolution: Rethinking teasher develorment. Edusational Leadershir. -53(6). -R. 4-10
4. Freeman G. D. & King J. L. (2003). A rartnershir for sshool readiness. Edusational Leadershir, 60, -R. 76-79.
5. Fullan M. (2001). Leading in a sulture of shange. San Fransisso: Josseu Bass.